



XALQ DEPUTATLARI UCHKO'PRIK TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr

VII-4-046-11-162-K/24

Uchko'prik tumani

Uchko'prik tumanining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida”gi 2024-yil 24-dekabrda O'RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrda VII-3-031-11-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrda 03/07-17/7723-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Uchko'prik tumani Kengashi sessiyasi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O'zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrda VII-3-031-11-0-K/24-son qarori (*bundan buyon matnda-Qaror deb yuritiladi*) **Rahbarlik va ijro** uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qarorga muvofiq, tuman mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari **161,5 mlrd so'm**, huddi shuningdek mahalliy byudjetining 2025-yilgi xarajatlari xam **161,5 mlrd so'mga** tasdiqlanganligi hamda tuman mahalliy byudjetining shaxsiy g'azna hisobvarag'ida turgan byudjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori **755,0 mln so'm** etib belgilanganligi **inobatga** olinsin.

3. Qonunning 12-moddasiga muvofiq:

soliqlarning quyidagi turlari tumanlar va shaharlar byudjetlariga to'liq hajmda o'tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklarasiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qat'idan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (*yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bundan mustasno*);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i (*yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bundan mustasno*);

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarining kamida **80 foizi** (*yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bundan mustasno*);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

4. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko'rsatkichlari **1-ilovaga** muvofiq, mahalliy byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilovaga** muvofiq, shuningdek tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me'yorlari **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg'armasi hajmi 2025-yil uchun **2,1 mlrd so'm** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg'armasi mablag'larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo'lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilishi ta'minlansin.

6. Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **4-ilovaga**, jismoniy shaxslar bo'yicha (*dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari*) mutloq miqdorda 1 m² uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **5-ilovaga**, noruda qurilish materiallari uchun (*sementdan tashqari*) belgilangan qat'iy stavkalar **6-ilovaga** hamda suv solig'i uchun qo'llaniladigan koeffitsiyent va mutloq qiymat **7-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

7. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari **J.Begmatov**, tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi, tuman soliq inspeksiyasi (**Umarov**) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy

byudjeti uchun belgilangan ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralari ko'rsinlar.

8. Hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to'liq rejalashtirilishi va o'z vaqtida to'lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to'g'ri shakllantirilishi va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlasin.

9. Tuman "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi (Raxmonov) va tuman soliq inspeksiyasi (Umarov) tumanda sug'orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo'yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste'mol hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to'liq hisoblanishini hamda **moliya yili yakuniga qadar** mahalliy byudjetlarga to'liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan iste'mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo'yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazishga **alohida e'tibor** qaratilsin.

10. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari J.Begmatov, tuman soliq inspeksiyasi (Umarov), tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi (Dexqonov) bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-noyabrdagi 709-son qaroriga asosan qishloq xo'jaligi yerlarini ijaraga berishda hisoblangan ijaraga va qo'shimcha to'lov summalarini belgilangan grafiklarga muvofiq mahalliy byudjetlarga **undirish** choralari ko'rsinlar.

11. Xalq deputatlari tuman Kengashi hamda tuman hokimi O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 27 va 28-moddalarida belgilangan byudjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar to'liq va o'z vaqtida tushishi hamda byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi **ustidan nazorat** o'rnatilsin.

12. Tuman hokimligi matbuot kotibi A.Ermatovga ushbu Kengash qarorini tuman hokimligi "Yangi Uchko'prik" gazetasida, shuningdek rasmiy internet-kanallar va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish hamda **tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga** joylashtirish tavsiya etilsin.

13. Mazkur Kengash qarorining ijrosini ta'minlab borishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib **tuman hokimining birinchi o'rinbosari J.Begmatov** belgilansin.

Qaror bajarilishini nazorat qilish vazifasi **xalq deputatlari tuman Kengashining "Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha" doimiy komissiyasi raisi M.Dexqonov** zimmasiga yuklansin.

14. Ushbu Kengash qarori rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiritiladi.

Sessiya raisi



N.D. Imomaliyeva

Xalq deputatlari Uchko‘prik tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrda
VII-4-046-11-162-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Tuman mahalliy byudjetining daromadlari bo‘yicha 2025-yil uchun

B A L A N S I

ming so‘m

№	Daromad turlari	Uchko‘prik tumani
I	JAMI DAROMADLAR	161 530 880
II	Mahalliy byudjet daromadlari prognozi	161 530 880
1	Foyda solig‘i	0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	13 877 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	74 288 800
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 831 000
	Aksiz solig‘i jami	0
5	<i>benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste‘molchiga realizasiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i</i>	0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	12 088 000
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	15 686 000
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	15 165 000
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	21 867 000
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq	227 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	6 270 080
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalarini foydasidan ajratmalar	0
13	Davlat boji	0
14	Yig‘imlar	0
15	Jarimalar	0
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	231 000

III	Transfert	0
------------	------------------	----------

Xalq deputatlari Uchko‘prik tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrda
VII-4-046-11-162-K/24 -son qaroriga
2-ilova

**Tuman mahalliy byudjetidan 2025-yilgi hududiy byudjet mablag‘larini
taqsimlovchilarga ajratilgan xarajatlarning umumiy cheklangan**

MIQDORLARI

ming so‘m

№	Xarajatlar-jami	161 530 880
1.	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar	71 736 494
1.1	Ta‘lim sohasi	63 383 983
	Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari	35 764 467
	Umumta‘lim maktablari	12 247 774
	Tuman Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi	2 408 315
	Tuman Barkamol avlod bolalar maktabi	5 212 648
	20-sonli bolalar musiqa va san‘at maktabi	4 440 494
	“Mening maktabim” loyihasi uchun	3 310 285
1.2	Madaniyat sohasi	1 910 093
	Tuman Madaniyat bo‘limi	1 168 312
	Tuman Axborot kutubxona markazi	741 781
1.3	Sport sohasi	6 282 820
	Tuman Sport maktabi	6 282 820
1.4	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”	34 650
1.5	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	124 948
2.	Iqtisodiyot xarajatlari	24 570 421
2.1	Obodonlashtirish	15 342 532
2.2	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta‘mirlash xarajatlari	4 187 853
2.3	Suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi	2 642 582
2.4	Fermerlar buxgalteriyasini saqlash xarajatlari	424 561
2.5	Hayvon kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi Davlat markazi	393 893
2.6	“Mahalla byudjeti” jamg‘armasi	1 579 000

№	Xarajatlar-jami	161 530 880
3.	Davlat boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari	24 012 709
3.1	Tuman hokimligi	2 723 475
3.2	Xalq qabulxonasi	173 303
3.3	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 265 876
3.4	Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi	6 023 909
3.5	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	2 365 510
3.6	Madaniyat bo‘limi (apparat)	137 104
3.7	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish markazi	1 624 284
3.8	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi	6 544 051
3.9	Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati	255 840
3.10	Veterinariya bo‘limi	1 899 357
4.	Zahira jamg‘armasi	2 104 916
5.	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	39 106 340
6.	Boshqa xarajatlar	0

Xalq deputatlari Uchko‘prik tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-046-11-162-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil uchun belgilangan soliq prognoz ko‘rsatkichlari bo‘yicha ajratma

M E ‘ Y O R L A R I

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Foyda solig‘i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste‘molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq			
		Tuman (shahar)lar byudjeti ga		Viloyatning viloyat byudjeti ga		Tuman (shahar)lar byudjeti ga		Viloyatning viloyat byudjeti ga		Tuman (shahar)lar byudjeti ga		Viloyatning viloyat byudjeti ga		Tuman (shahar)lar byudjeti ga		Viloyatning viloyat byudjeti ga		Tuman (shahar)lar byudjeti ga		Viloyatning viloyat byudjeti ga		Tuman (shahar)lar byudjeti ga		Viloyatning viloyat byudjeti ga	
		M RI	DS B	M RI	DS B	M RI	DS B	M RI	DS B	M RI	DS B	M RI	DS B	M RI	DS B	M RI	DS B	M RI	DSB	M RI	DSB	M RI	DSB	M RI	DSB
1	Uchko‘prik tumani	0	80	100	20	0	0	100	100	0	0	100	100	0	0	100	100	0	0	100	100	0	100	100	0

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig‘imlar			
		Tuman (shahar)lar byudjeti ga		Viloyatning viloyat byudjeti ga		Tuman (shahar)lar byudjeti ga		Viloyatning viloyat byudjeti ga		Tuman (shahar)lar byudjeti ga		Viloyatning viloyat byudjeti ga		Tuman (shahar)lar byudjeti ga		Viloyatning viloyat byudjeti ga		Tuman (shahar)lar byudjeti ga		Viloyatning viloyat byudjeti ga		Tuman (shahar)lar byudjeti ga		Viloyatning viloyat byudjeti ga			
		M RI	DS B	M RI	DS B	M RI	DS B	M RI	DS B	M RI	DS B	M RI	DS B	M RI	DS B	M RI	DS B	M RI	DSB	M RI	DSB	M RI	DSB	M RI	DSB		
1	Uchko‘prik tumani	0	100	100	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	0	100	100	100	0	0	100	0	100	0	100	0	100

Xalq deputatlari Uchko‘prik tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrda
VII-4-046-11-162-K/24 -son qaroriga
4-ilova

**Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq
miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va
oshiruvchi**

K O E F F I S I Y E N T L A R

so‘mda

T/r	MFY lar nomi	Koeffisiyent (0,5 dan 2,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (1 ga. uchun)
	tuman bo‘yicha	0,95	38 665
1	Tinchlik MFY	1,00	40 700
2	Uchko‘prik MFY	1,08	43 956
3	Zigir MFY	1,00	40 700
4	Yangi bog‘ MFY	1,00	40 700
5	Yakkatut MFY	1,00	40 700
6	Mergan MFY	1,00	40 700
7	CHorbog‘ MFY	1,00	40 700
8	Begmurod MFY	1,00	40 700
9	Mashad MFY	1,00	40 700
10	Puchug‘oy MFY	1,08	43 956
11	Sulton MFY	1,08	43 956
12	Tepaqo‘rgon MFY	1,08	43 956
13	Boboshbek MFY	1,08	43 956
14	Istiqbol MFY	1,00	40 700
15	Palaxon MFY	1,08	43 956
16	Yulg‘unzor MFY	1,00	40 700
17	Yangiyo‘l MFY	1,00	40 700
18	Oqsuv MFY	1,00	40 700
19	Qurbonqashqar MFY	0,90	36 630
20	Sariqo‘rg‘on MFY	0,90	36 630
21	Tojik MFY	0,90	36 630
22	Yangiyer MFY	1,00	40 700
23	Oltin vodi MFY	1,00	40 700
24	Katta Kenagas MFY	1,00	40 700
25	Begobod MFY	1,00	40 700
26	Katta Qashqar MFY	1,00	40 700
27	Katta Qo‘sh tepa MFY	1,00	40 700
28	Kichik Kenagas MFY	1,00	40 700
29	Katta Qorako‘l MFY	1,00	40 700
30	Olmurod MFY	1,00	40 700

T/r	MFY lar nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2,0 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2025-yil uchun (1 ga. uchun)
31	To'qsonqovun MFY	1,00	40 700
32	Farovon MFY	1,08	43 956
33	Yangiobod MFY	1,08	43 956
34	Yangiqishloq MFY	1,00	40 700
35	Turg'oq MFY	1,00	40 700
36	Baxrin MFY	1,00	40 700
37	Hasanqora MFY	1,00	40 700
38	Yakkamulla MFY	1,00	40 700
39	Navro'z MFY	1,00	40 700
40	Sobirjon MFY	1,00	40 700
41	CHang MFY	0,90	36 630
42	Qorayantoq MFY	0,90	36 630
43	G'ozig'i-G'ijdon MFY	1,00	40 700
44	G'ijdon MFY	1,00	40 700
45	Mirzaxo'ja MFY	1,00	40 700
46	Qumariq MFY	1,00	40 700
47	Beshkapa MFY	1,00	40 700
48	Mehnatobod MFY	0,70	28 490
49	Anhor bo'yi MFY	0,90	36 630
50	Soy bo'yi MFY	0,90	36 630
51	Bog'i bo'ston MFY	0,90	36 630
52	Nihol MFY	0,90	36 630

Xalq deputatlari Uchko‘prik tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrda
VII-4-046-11-162-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (*dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari*) mutloq miqdorda 1 m² uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi

K O E F F I S I Y E N T L A R

so‘mda

T/r	MFY lar nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (1 m ² uchun)
	tuman bo‘yicha[^]	0,95	348
1	Tinchlik MFY	1,00	366
2	Uchko‘prik MFY	1,10	403
3	Zigir MFY	1,00	366
4	Yangi bog‘ MFY	1,00	366
5	Yakkatut MFY	1,00	366
6	Mergan MFY	1,00	366
7	CHorbog‘ MFY	1,00	366
8	Begmurod MFY	1,00	366
9	Mashad MFY	1,00	366
10	Puchug‘oy MFY	1,10	403
11	Sulton MFY	1,10	403
12	Tepaqo‘rgon MFY	1,10	403
13	Boboshbek MFY	1,10	403
14	Istiqbol MFY	1,00	366
15	Palaxon MFY	1,10	403
16	Yulg‘unzor MFY	1,00	366
17	Yangiyo‘l MFY	1,00	366
18	Oqsuv MFY	1,00	366
19	Qurbonqashqar MFY	0,90	330
20	Sariqo‘rg‘on MFY	0,90	330
21	Tojik MFY	0,90	330
22	Yangiyer MFY	1,00	366
23	Oltin vodi MFY	1,00	366
24	Katta Kenagas MFY	1,00	366
25	Begobod MFY	1,00	366
26	Katta Qashqar MFY	1,00	366
27	Katta Qo‘sh tepa MFY	1,00	366
28	Kichik Kenagas MFY	1,00	366
29	Katta Qorako‘l MFY	1,00	366
30	Olmurod MFY	1,00	366

T/r	MFY lar nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2,0 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2025-yil uchun (1 m² uchun)
31	To'qsonqovun MFY	1,00	366
32	Farovon MFY	1,10	403
33	Yangiobod MFY	1,10	403
34	Yangiqishloq MFY	1,00	366
35	Turg'oq MFY	1,00	366
36	Baxrin MFY	1,00	366
37	Hasanqora MFY	1,00	366
38	Yakkamulla MFY	1,00	366
39	Navro'z MFY	1,00	366
40	Sobirjon MFY	1,00	366
41	CHang MFY	0,90	330
42	Qorayantoq MFY	0,90	330
43	G'ozig'i-G'ijdon MFY	1,00	366
44	G'ijdon MFY	1,00	366
45	Mirzaxo'ja MFY	1,00	366
46	Qumariq MFY	1,00	366
47	Beshkapa MFY	1,00	366
48	Mehnatobod MFY	0,70	256
49	Anhor bo'yi MFY	0,85	311
50	Soy bo'yi MFY	0,85	311
51	Bog'i bo'ston MFY	0,85	311
52	Nihol MFY	0,85	311

Xalq deputatlari Uchkoʻprik tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-046-11-162-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (*sementdan tashqari*) belgilangan qatʼiy

S T A V K A L A R

soʻmda

T/r	Hududlar	Qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shagʻal aralashmasi			Gʻisht-cherepisa xomashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar		
		Koeffitsiyent	Foiz	Mutloq qiymat	Koeffitsiyent	Foiz	Mutloq qiymat
1	Uchkoʻprik tumani	1,01		5 050,0	1,100	5,0	5 082,0

Xalq deputatlari Uchkoʻprik tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-046-11-162-K/24 -son qaroriga
7-ilova

Suv soligʻi uchun qoʻllaniladigan koeffitsiyent va mutloq qiymat

soʻmda

T/r	Hududlar	Iqtisodiyotni barcha tarmoqlari hamda sanoat korxonalarini uchun				Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkohol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun		Avtotrans port vositalarini yuvish uchun	
		Yer usti		Yer osti		koeffitsiyent	Mutloq qiymat	koeffitsiyent	Mutloq qiymat
		koeffitsiyent	Mutloq qiymat	koeffitsiyent	Mutloq qiymat				
1	Uchkoʻprik tumani	1,05	735,0	1,04	884,0	1,00	38 000,0	1,05	15 750,0